

TALABALARDA RASMIY YOZMA NUTQ KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Ibragimova Gulbaxor Rashidjon qizi

Turon universiteti Andijon filiali magistranti

Matkarimova Ashurxon Ismoilovna

Ilmiy rahbar, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22827148>

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada talabalarda rasmiy yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishning samarali usullari va pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Rasmiy yozma nutq talabaning fikrini adabiy til me'yorlariga muvofiq, izchil, aniq, mantiqiy va maqsadga yo'naltirilgan tarzda ifodalash qobiliyatini namoyon etuvchi muhim kommunikativ kompetensiya sifatida qaraladi. Tadqiqotda rasmiy yozma nutqni rivojlantirishda bosqichma-bosqich o'qitish, namunaviy matnlarni tahlil qilish, rejalashtirish, mustaqil yozish, o'z-o'zini tahrirlash, tengdoshlar fikr-mulohazasidan foydalanish hamda muntazam yozma mashqlarni tashkil etish usullarining ahamiyati asoslab beriladi. Shuningdek, yozma matn yaratish jarayonini rejalashtirish, amalga oshirish va nazorat bosqichlariga ajratish talabalarning matn tuzilishini anglash va mazmunni izchil shakllantirishiga yordam berishi ko'rsatiladi. Tadqiqot natijalari rasmiy yozma nutqni shakllantirish faqat grammatik va imloviy xatolarni bartaraf etish bilan cheklanmasdan, talabalarda mantiqiy fikrlash, dalillash, matnni strukturaviy tashkil etish va akademik yozuv madaniyatini rivojlantirishni ham nazarda tutishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: rasmiy yozma nutq, yozma nutq ko'nikmasi, talaba, akademik yozuv, yozma mashqlar, matn tuzilishi, tahrirlash, fikr-mulohaza.

Kirish. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida talabalarning kasbiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning yozma nutqdan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish ham muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, talabaning rasmiy hujjatlar, arizalar, ma'lumotnomalar, xizmat xatlari, ilmiy maqolalar, tezislar, hisobotlar va boshqa yozma materiallarni belgilangan til va uslub me'yorlariga muvofiq tuza olishi uning kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun zarur kompetensiyalardan biridir. Yozma nutq shaxsning fikrlash darajasi, mantiqiy izchilligi va axborotni tizimli ravishda ifodalash qobiliyatini namoyon etuvchi muhim vosita sifatida qaraladi [1,12].

Rasmiy yozma nutq oddiy yozma bayondan o'zining aniqligi, mantiqiyliqi, ixchamligi, me'yoriyligi va kommunikativ maqsadga yo'naltirilganligi bilan farqlanadi. Bunday nutqda fikrning mazmuni bilan bir qatorda, uning qanday shaklda ifodalanishi, terminlardan to'g'ri foydalanish, grammatik va imloviy me'yorlarga rioya qilish, matnning tarkibiy qismlarini to'g'ri joylashtirish kabi jihatlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli oliy ta'lim jarayonida talabalarga rasmiy yozma nutqning nazariy asoslarini tushuntirish bilan birga, uni amaliy faoliyat orqali muntazam shakllantirish talab etiladi [2,149–154].

Talabalarda yozma nutq ko'nikmasini rivojlantirish jarayoni bir necha o'zaro bog'liq bosqichlarni qamrab oladi. Xususan, yozma topshiriqning

maqsadini aniqlash, mavzu bo'yicha zarur ma'lumotlarni yig'ish, fikrlarni saralash va rejalashtirish, matnni yaratish, uni tahrirlash hamda yakuniy variantni baholash yozma faoliyatning muhim tarkibiy qismlaridir. Mazkur bosqichlarning izchil tashkil etilishi talabaning nafaqat savodxonligini, balki mustaqil fikrlash, fikrni asoslash va uni mantiqiy ketma-ketlikda ifodalash qobiliyatini ham rivojlantiradi [3,44–46]. Oliy ta'lim amaliyotida talabalarning rasmiy yozma nutqini shakllantirishda ko'pincha tayyor namunalarni tahlil qilish, rasmiy uslubga xos til birliklarini aniqlash, turli janrdagi yozma topshiriqlarni bajarish, matnlarni qayta ishlash va tahrirlash kabi usullardan foydalaniladi. Biroq mazkur jarayon faqat grammatik qoidalarini o'rgatish bilan chegaralanib qolmasligi lozim. Chunki talabaning yozma nutqdagi kompetentligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri — uning mavjud bilimlarini muayyan kommunikativ vaziyatga mos holda mustaqil qo'llay olishidir [4,58–64].

Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlarda yozma topshiriq bajarilgandan keyingi tahlil va fikr-mulohaza jarayoniga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Talabaning o'z matnidagi xatolarni aniqlashi, ularni tahlil qilishi va matnni qayta tahrirlay olishi yozma nutq ko'nikmasining barqaror shakllanishiga xizmat qiladi. O'qituvchi tomonidan beriladigan aniq va konstruktiv fikr-mulohaza esa talabaga o'zining kuchli va takomillashtirilishi lozim bo'lgan jihatlarini anglash imkonini beradi [5,63–64].

Shu nuqtayi nazardan, talabalarda rasmiy yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish masalasini o'rganish oliy ta'limning zamonaviy talablari bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi talabalarda rasmiy yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishning samarali usullarini aniqlash, ularning pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish hamda ta'lim jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan amaliy yondashuvlarni asoslashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini talabalarda rasmiy yozma nutq ko'nikmalarini izchil va amaliy faoliyat asosida shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida rasmiy yozma nutqning mazmuni, tarkibiy xususiyatlari hamda uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali ta'lim usullari o'rganildi. Bunda yozma nutqni shakllantirish jarayoni talabaning nazariy bilimlarini amaliy topshiriqlar orqali mustahkamlashi, mustaqil matn yaratishi va o'z yozma ishini tahlil qilib, takomillashtirishi asosida tashkil etildi.

Tadqiqotda tahlil, kuzatish, suhbat, pedagogik tajriba, yozma topshiriqlarni o'rganish va taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Tahlil metodi orqali rasmiy yozma nutqqa oid ilmiy-pedagogik qarashlar, yozma nutqni rivojlantirish metodlari va ta'lim jarayonida qo'llaniladigan mashqlar o'rganildi. Kuzatish metodi yordamida talabalarning yozma topshiriqlarni bajarish jarayonidagi faolligi, fikrni ifodalash usuli, matn tuzishdagi izchilligi va til me'yorlariga rioya qilishi kuzatildi. Suhbat metodi orqali talabalarning rasmiy yozma nutqni o'zlashtirish jarayonidagi qiyinchiliklari va ehtiyojlari aniqlandi.

Tadqiqotning amaliy bosqichida yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar tizimidan foydalanildi. Topshiriqlar murakkablik darajasiga ko'ra bosqichma-bosqich tashkil etildi. Dastlab talabalarga rasmiy uslubning asosiy belgilari, matnning tuzilishi, fikrni aniq va mantiqiy ifodalash, so'z va grammatik shakllarni me'yoriy qo'llash bo'yicha nazariy ma'lumotlar berildi. Keyingi bosqichda tayyor rasmiy matnlarni tahlil qilish, ularning tarkibiy qismlarini aniqlash, uslubiy va grammatik xatolarni topish hamda matnni tahrirlashga oid mashqlar bajarildi [1,149–154].

Talabalarda mustaqil yozma nutq ko'nikmasini shakllantirish maqsadida namuna asosida yozish, matnni qayta tuzish, berilgan vaziyat asosida rasmiy hujjat yaratish, qisqa rasmiy xat yozish, axborot va hisobot tayyorlash kabi topshiriqlardan

foydalanildi. Mazkur topshiriqlar talabaniy faqatgina til qoidalarini bilishini emas, balki ularni real kommunikativ vaziyatda to'g'ri qo'llay olish qobiliyatini aniqlashga imkon berdi. Yozma topshiriqlarni bajarishda talabalarga matnning maqsadi, adresati, mazmuni va uslubiy xususiyatlarini hisobga olish talabi qo'yildi [2,44–46].

Tadqiqot metodikasida yozma ishini rejalashtirish – yozish – tahrirlash – baholash ketma-ketligi asosiy tamoyil sifatida belgilandi. Rejalashtirish bosqichida talabalar mavzuning asosiy mazmunini aniqlab, fikrlarni izchil tartibga keltirdilar. Yozish bosqichida tuzilgan reja asosida rasmiy matn yaratildi. Tahrirlash jarayonida matnning mazmuniy izchilligi, grammatik va imloviy to'g'riligi, rasmiy uslub talablariga muvofiqligi tekshirildi. Yakuniy bosqichda esa talabaniy yozma ishi belgilangan mezonlar asosida baholandi. Bunday jarayon yozma nutqni bir martalik topshiriq sifatida emas, balki doimiy takomillashtirib boriladigan faoliyat sifatida tashkil etishga xizmat qiladi [3,58–64].

Talabalarining yozma ishlarini baholashda bir nechta mezonlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb belgilandi. Jumladan, mazmunning mavzuga muvofiqligi, fikrning mantiqiy va izchil ifodalanishi, matnning strukturaviy yaxlitligi, rasmiy uslub talablariga rioya qilinishi, grammatik va imloviy savodxonlik, so'z boyligi hamda mustaqil fikrning mavjudligi asosiy baholash mezonlari sifatida olindi. Ushbu mezonlarning kompleks qo'llanilishi talabaniy yozma nutqini faqat xatolar soniga qarab emas, balki uning umumiy kommunikativ samaradorligi nuqtayi nazaridan baholash imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqot davomida o'z-o'zini tahrirlash va o'zaro baholash usullaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratildi. Talabalar yozgan matnlarini qayta o'qib, undagi mazmuniy, grammatik va uslubiy kamchiliklarni mustaqil aniqlashga yo'naltirildi. Ayrim topshiriqlarda esa talabalar bir-birlarining yozma ishlarini belgilangan mezonlar asosida tahlil qilib,

takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berdilar. Bunday yondashuv talabalarda tanqidiy fikrlash, yozma faoliyatga mas'uliyat bilan yondashish va o'z xatosini mustaqil tuzatish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi [4,63–64].

Shunday qilib, tadqiqot metodikasi rasmiy yozma nutqni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlarini o'zaro bog'lashga asoslandi. Nazariy bilimlarni amaliy yozma topshiriqlar bilan uyg'unlashtirish, muntazam tahrirlash va fikr-mulohaza berish, shuningdek, yozma ishlarni aniq mezonlar asosida baholash talabalarining rasmiy yozma nutq ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishning asosiy metodik shartlari sifatida belgilandi.

Natijalar. Tadqiqot davomida talabalarda rasmiy yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan metod va topshiriqlarning samaradorligi ularning yozma faoliyatidagi o'zgarishlarni kuzatish asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, rasmiy yozma nutqni rivojlantirish jarayonida faqat nazariy ma'lumotlarni berish yetarli natijani ta'minlamaydi. Talabaniy bevosita yozma faoliyatga jalb etilishi, yozgan matnini tahlil qilishi va uni qayta ishlashi ko'nikmaning shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, rasmiy yozma nutqni shakllantirishda namunaviy matnlarni tahlil qilish usuli samarali metodlardan biri sifatida namoyon bo'ldi. Talabalar rasmiy uslubda yozilgan matnlarning tuzilishi va mazmunini tahlil qilish orqali rasmiy nutqqa xos bo'lgan til birliklari, standart iboralar, mantiqiy bog'lanishlar va matnning tarkibiy qismlarini yaxshiroq anglay boshladilar. Tayyor matnni shunchaki o'qishdan ko'ra, uning qanday maqsadda va qanday lingvistik vositalar yordamida yaratilganini aniqlash talabalarining yozish jarayoniga ongli yondashishga imkon berdi.

Yozma topshiriqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish ham ijobiy metodik natija berdi. Dastlab talabalar tayyor matnlardagi xatolarni aniqlash, gaplarni rasmiy uslubga moslashtirish va

matnning tarkibiy qismlarini belgilash kabi reproduktiv topshiriqlarni bajardilar. Keyinchalik ularga berilgan kommunikativ vaziyat asosida mustaqil rasmiy matn yaratish vazifalari taklif qilindi. Ushbu ketma-ketlik talabalarining tayyor namunaga tayanishdan mustaqil yozma faoliyatga o'tishini ta'minladi [1,149–154].

Tadqiqotda yozma matnni rejalashtirish, yozish va tahrirlash bosqichlariga ajratish talabalarining fikrni izchil ifodalashiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Reja asosida yozilgan matnlarda fikrlarning tartibsiz joylashishi, mavzudan chetga chiqish va mazmuniy takrorlanish kabi kamchiliklar kamaydi. Talabalar yozishdan avval asosiy fikrlarni belgilash orqali matnning umumiy mazmunini oldindan tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijada rasmiy matnning kirish, asosiy va yakuniy qismlarini mantiqan bog'lash ko'nikmasi shakllana boshladi [2,44–46].

Yana bir muhim natija o'z-o'zini tahrirlash metodidan foydalanish bilan bog'liq bo'ldi. Talabalar yozma ishni yakunlagandan so'ng uni qayta ko'rib chiqish, grammatik, imloviy, uslubiy va mazmuniy xatolarni aniqlashga yo'naltirildi. Bunday yondashuv natijasida talabalar o'qituvchi tomonidan xato ko'rsatilishini kutmasdan, o'z matnidagi kamchiliklarni mustaqil aniqlashga odatlandilar. Bu esa yozma nutq ustida ishlashning faqat auditoriya mashg'uloti bilan cheklanib qolmasdan, talabaning mustaqil ta'lim faoliyatiga ham ko'chishiga imkon yaratdi [3,58–64].

O'zaro baholash va fikr-mulohazadan foydalanish ham talabalarining yozma nutqini takomillashtirishda samarali vosita sifatida kuzatildi. Bir talabaning yozma ishini boshqa talaba tomonidan belgilangan mezonlar asosida tahlil qilishi matnga tashqi nuqtayi nazardan qarash imkonini berdi. Bunda talabalar rasmiy matnning mazmuniy aniqligi, mantiqiyligi, uslubiy mosligi va grammatik to'g'riligiga e'tibor qaratdilar. O'zaro tahlil jarayonida talabalar nafaqat boshqalarning xatolarini aniqlash, balki o'z yozma ishlarida ham shunga o'xshash kamchiliklarni bartaraf etish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Tadqiqot natijalari rasmiy yozma nutq ko'nikmasining bir nechta o'zaro bog'liq komponentlardan tashkil topishini ham ko'rsatdi. Jumladan, talabaning til me'yorlariga rioya qilishi, fikrni mantiqiy tashkil etishi, rasmiy uslubni tanlashi, matn tuzilishini to'g'ri shakllantirishi va kommunikativ maqsadga erishishi birgalikda yozma nutq sifatini belgilaydi. Shu sababli yozma nutqni baholashda faqat grammatik xatolarni hisoblash bilan cheklanmasdan, matnning umumiy kommunikativ va strukturaviy sifatini ham hisobga olish zarur.

Natijalar asosida rasmiy yozma nutqni shakllantirishning samarali modeli quyidagi izchillikda tashkil etilishi mumkinligi aniqlandi: nazariy tushuntirish → namunaviy matn tahlili → boshqariladigan yozma mashq → mustaqil matn yaratish → o'z-o'zini tahrirlash → o'zaro baholash → yakuniy takomillashtirish. Ushbu ketma-ketlik talabaning dastlab o'qituvchi ko'magida, keyinchalik esa mustaqil ravishda rasmiy yozma matn yaratishiga sharoit yaratadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari rasmiy yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishda tizimlilik, izchillik va amaliy yo'naltirilganlik asosiy metodik omillar ekanligini ko'rsatdi. Yozma topshiriqlarning muntazam bajarilishi, matnni qayta ishlash, fikr-mulohazadan foydalanish va aniq baholash mezonlarining joriy etilishi talabalarining yozma faoliyatga bo'lgan mas'uliyatini oshirish bilan birga, ularda mustaqil va me'yoriy yozish ko'nikmasining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari talabalarda rasmiy yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish murakkab va bosqichma-bosqich kechadigan pedagogik jarayon ekanligini ko'rsatdi. Mazkur jarayonda talabaning faqat grammatik qoidalarni bilishi emas, balki o'z fikrini muayyan kommunikativ vaziyat, maqsad va adresatga mos ravishda yozma shaklda ifodalay olishi muhim hisoblanadi. Shu jihatdan rasmiy yozma nutqni shakllantirishni til bilimlarini amaliy nutqiy faoliyat bilan bog'lagan holda tashkil etish maqsadga muvofiqdir [1,12].

Tadqiqotda aniqlangan muhim jihatlardan biri shundan iboratki, rasmiy yozma nutqni rivojlantirishda namunaviy matnlar bilan ishlash talabalarga rasmiy uslubning amaliy xususiyatlarini anglash imkonini beradi. Talaba tayyor matnni tahlil qilish orqali rasmiy yozuvda fikrning qanday tartibda berilishi, qanday soʻz va iboralardan foydalanilishi, mazmuniy qismlarning qanday bogʻlanishi haqida aniq tasavvur hosil qiladi. Bu jarayonda oʻqituvchi tayyor qoidani beruvchi emas, balki matnni tahlil qilishga yoʻnaltiruvchi subyekt sifatida faoliyat yuritishi lozim. Akademik yozuvni rivojlantirishga bagʻishlangan tadqiqotlarda ham yozish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish va talabaning mustaqil faoliyatini kuchaytirish muhim omil sifatida qayd etiladi [2,149–154].

Rasmiy yozma nutqni shakllantirishda yozishdan oldingi rejalashtirish bosqichining ahamiyati ham alohida eʼtiborga loyiq. Talaba koʻpincha mavzu boʻyicha yetarli bilimga ega boʻlsa-da, fikrlarni qanday tartibda ifodalash va matnni qanday tuzish masalasida qiyinchilikka duch keladi. Rejalashtirish ushbu muammoni kamaytirib, asosiy va ikkilamchi fikrlarni ajratish, matnning tarkibiy qismlarini belgilash hamda ular oʻrtasidagi mantiqiy bogʻlanishni aniqlash imkonini beradi. Natijada yozma matnning yaxlitligi va izchilligi taʼminlanadi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, tahrirlash jarayonini yozma faoliyatning ajralmas qismi sifatida qarash zarurligi ham aniqlandi. Anʼanaviy yozma topshiriqlarda talaba matnni yozib boʻlgach, uni oʻqituvchiga topshiradi va asosiy eʼtibor xatolarni aniqlashga qaratiladi. Bunday yondashuvda talaba koʻpincha xatoning sababini anglamasligi yoki kelgusida uni takrorlashi mumkin. Oʻz-oʻzini tahrirlashga asoslangan yondashuv esa talabani yozgan matni uchun masʼuliyatli boʻlishga undaydi. U oʻz ishini qayta koʻrib chiqish orqali grammatik, imloviy, uslubiy va mazmuniy kamchiliklarini aniqlashni oʻrganadi [3,58–64].

Shuningdek, oʻzaro baholash va fikr-mulohaza berish rasmiy yozma nutqni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri sifatida baholanishi

mumkin. Talabaning boshqa shaxs tomonidan yozilgan matnni tahlil qilishi uning baholash mezonlarini yaxshiroq tushunishiga yordam beradi. Bunda oʻzaro baholash oddiygina xatolarni koʻrsatish jarayoni emas, balki matnning kuchli va zaif tomonlarini asoslash, takomillashtirish yoʻllarini taklif qilish faoliyatiga aylanishi kerak. Bunday yondashuv talabalarda tanqidiy fikrlash va kommunikativ masʼuliyatni rivojlantiradi [4,63–64]. Muhokama jarayonida rasmiy yozma nutqni shakllantirishda grammatik savodxonlik va kommunikativ kompetensiya oʻrtasidagi muvozanat masalasiga ham eʼtibor qaratish lozim. Grammatik va imloviy jihatdan toʻgʻri yozilgan, biroq mazmunan noaniq yoki kommunikativ maqsadga javob bermaydigan matnni mukammal rasmiy yozma nutq namunasi sifatida baholab boʻlmaydi. Xuddi shuningdek, mazmunan yaxshi tashkil etilgan, ammo koʻplab til xatolariga ega matn ham talab darajasidagi rasmiy yozuv hisoblanmaydi. Demak, yozma nutqni rivojlantirish jarayonida grammatik toʻgʻrilik, mazmuniy aniqlik, mantiqiy izchillik va uslubiy moslik oʻzaro uygʻun holda rivojlantirilishi zarur.

Rasmiy yozma nutqning shakllanishida topshiriqlarning real kasbiy va kommunikativ vaziyatlarga yaqinlashtirilishi ham muhim metodik shartlardan biridir. Masalan, talabaga shunchaki “rasmiy xat yozing” tarzidagi umumiy topshiriq berishdan koʻra, muayyan vaziyatni tavsiflash va shu vaziyatga mos yozma murojaat yaratishni taklif qilish samaraliroq boʻlishi mumkin. Bunda talaba matnning kimga yoʻllanishi, qanday maqsadda yozilishi, qanday ohang va uslubdan foydalanish lozimligini mustaqil belgilaydi. Natijada yozma nutq real kommunikativ faoliyat bilan bogʻlanadi.

Tadqiqot natijalari va ilmiy adabiyotlar tahlili asosida shuni taʼkidlash mumkinki, talabalarda rasmiy yozma nutqni shakllantirishda bitta metoddan foydalanish yetarli emas. Samarali natijaga erishish uchun bir-birini toʻldiruvchi metodlar majmuasidan foydalanish talab etiladi. Xususan, nazariy tushuntirish namunaviy matn tahlili bilan, boshqariladigan mashqlar mustaqil

yozish bilan, mustaqil yozish esa tahrirlash va fikr-mulohaza bilan uyg'unlashtirilganda ta'lim jarayonining samaradorligi oshadi.

Shu bilan birga, rasmiy yozma nutqni rivojlantirishda o'qituvchining roli ham o'zgarib borishi lozim. O'qituvchi faqat tayyor bilimni yetkazuvchi yoki xatolarni tekshiruvchi emas, balki talabani yozma faoliyatini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi va rivojlantiruvchi pedagog sifatida namoyon bo'lishi kerak. Talabaga mustaqil fikrlash va o'z matnini takomillashtirish imkoniyatining berilishi uning yozma kompetensiyasining barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.

Umuman olganda, muhokama natijalari rasmiy yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishning eng maqbul yo'li nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish, yozish jarayonini bosqichlarga ajratish, muntazam mashq qildirish, o'z-o'zini tahrirlash va konstruktiv fikr-mulohazadan foydalanish ekanligini ko'rsatadi. Bunday tizimli yondashuv talabani nafaqat savodli yozish, balki fikrni aniq, mantiqiy, ixcham va rasmiy uslub talablariga muvofiq ifodalash kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot va ilmiy-nazariy tahlillar asosida talabalarda rasmiy yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish oliy ta'lim jarayonining muhim tarkibiy yo'nalishlaridan biri ekanligi aniqlandi. Rasmiy yozma nutq talabani o'z fikrini adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda aniq, izchil, mantiqiy va maqsadga muvofiq ifodalash qobiliyatini namoyon etadi. Shu sababli mazkur ko'nikmani shakllantirish jarayoni faqat grammatik va imloviy qoidalarni o'zlashtirish bilan chegaralanmasdan, talabani mustaqil fikrlashi, axborotni tizimlashtirishi, dalillashi va uni yozma shaklda to'g'ri ifodalashini ta'minlashi lozim.

Tadqiqot natijalari rasmiy yozma nutqni rivojlantirishda bosqichma-bosqich va amaliy faoliyatga asoslangan yondashuv samarali ekanligini ko'rsatdi. Xususan, nazariy ma'lumotlarni berish, namunaviy matnlarni tahlil qilish, yozma topshiriqlarni bajarish, mustaqil matn yaratish, o'z-o'zini tahrirlash va o'zaro baholash

kabi usullarni o'zaro uyg'unlashtirish talabalarning yozma faoliyatini takomillashtirish uchun zarur pedagogik sharoitlarni yaratadi.

Rasmiy yozma nutqni shakllantirishda yozish jarayonini rejalashtirish, matn yaratish, tahrirlash va yakuniy baholash bosqichlari asosida tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Bunday yondashuv talabani yozma ishga ongli munosabatini shakllantirib, o'z xatolarini mustaqil aniqlash va tuzatish imkoniyatini kengaytiradi. Shu bilan birga, yozma topshiriqlarning real kasbiy va kommunikativ vaziyatlarga yaqinlashtirilishi talabalarning o'zlashtirgan bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llash darajasini oshiradi.

Tadqiqot asosida rasmiy yozma nutqni baholashda faqat grammatik va imloviy xatolar soniga tayanish yetarli emasligi aniqlandi. Baholash jarayonida matnning mazmuniy yaxlitligi, mantiqiy izchilligi, strukturaviy tashkil etilishi, rasmiy uslubga muvofiqligi, til vositalaridan foydalanish darajasi va kommunikativ maqsadga erishishi ham hisobga olinishi zarur. Mazkur mezonlarning kompleks qo'llanilishi talabani haqiqiy yozma kompetensiyasini obyektivroq aniqlash imkonini beradi.

Shunday qilib, talabalarda rasmiy yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish uzluksiz, tizimli va amaliy yo'naltirilgan ta'lim jarayonini talab qiladi. Mazkur jarayonda o'qituvchi tomonidan muntazam metodik yordam ko'rsatilishi, talabani mustaqil yozma faoliyati qo'llab-quvvatlanishi va konstruktiv fikr-mulohaza bilan ta'minlanishi muhimdir. Rasmiy yozma nutqni puxta egallagan talaba kelgusida nafaqat ta'limiy, balki kasbiy faoliyatda ham o'z fikrini savodli, aniq va ishonchli ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kelgusida mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarda turli ta'lim yo'nalishlari talabari uchun rasmiy yozma nutqni rivojlantirishga mo'ljallangan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, uning samaradorligini tajriba-sinov asosida aniqlash hamda raqamli ta'lim vositalari va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Khasanova Z.M. Methods of Developing Academic Writing Skills of Students // American Journal of Pedagogical and Educational Research. – 2023. – Vol. 8. – P. 149–154.
2. Смирнова Н.В. Академическая грамотность и письмо в вузе: от теории к практике // Высшее образование в России. – 2015. – № 6. – С. 58–64.
3. Khakimova D.O. Teaching Effective Academic Writing Strategies to University Students in Uzbekistan // Central Asian Journal of Social Sciences and History. – 2023. – Vol. 4, No. 8. – P. 63–64. – DOI: 10.51699/cajssh.v4i8.849.
4. Смирнова Н.В., Щемелева И.Ю. Роль письма в современном университете: анализ зарубежной практики обучения академическому письму // Вестник Санкт-Петербургского университета. Серия 9: Филология, востоковедение, журналистика. – 2015. – Вып. 2. – С. 185–197.
5. Шестак В.П., Шестак Н.В. Формирование научно-исследовательской компетентности и «академическое письмо» // Высшее образование в России. – 2011. – № 12. – С. 115–119.
6. Лытаева М.А., Талалакина Е.В. Academic skills: сущность, модель, практика // Вопросы образования. – 2011. – № 4. – С. 178–201.
7. Сазанович Л.В. Формирование навыков академического письма на занятиях по английскому языку в медицинском вузе // Педагогика формирования творческой личности в высшей и общеобразовательной школах. – 2014. – Вып. 34 (87). – С. 504–509.
8. Lillis T., Curry M.J. Academic Writing in a Global Context: The Politics and Practices of Publishing in English. – London: Routledge, 2010.
9. Hartley J. Academic Writing and Publishing: A Practical Guide. – London; New York: Routledge, 2008. – 196 p.
10. Canale M. From Communicative Competence to Communicative Language Pedagogy // Language and Communication / Ed. by J.C. Richards, R.W. Schmidt. – London; New York: Longman, 1983. – P. 2–27.